



TADQIQOT KO'NIKMALARINI BAHOLASH MEZONLARI VA DIAGNOSTIKA VOSITALARINI ISHLAB CHIQISH

**Sayidaxmedov Ravshan Rajabovich –
Buxoro davlat texnika universiteti
“Metrologiya va standartlashtirish”
kafedrası katta o‘qituvchisi**

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning tadqiqot ko'nikmalarini baholash mezonlari hamda ularni aniqlashga xizmat qiluvchi diagnostika vositalarini ishlab chiqishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot ko'nikmalari zamonaviy oliy ta'lim tizimida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim komponenti sifatida qaralib, ularning tarkibiy tuzilmasi refleksiv, analitik, metodologik, kreativ va kommunikativ komponentlar asosida tizimlashtiriladi. Maqolada kompetensiyaviy yondashuv, tizimli tahlil, faoliyat yondashuvi hamda diagnostik monitoring tamoyillariga tayangan holda baholash mezonlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tadqiqot ko'nikmalari, baholash mezonlari, diagnostika vositalari, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv baholash, analitik tafakkur, ilmiy-tadqiqot faoliyati, indikatorlar tizimi, reyting modeli, monitoring, oliy ta'lim.

КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ УМЕНИЙ И РАЗРАБОТКА ДИАГНОСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ

**Саидахмедов Равшан Раджабович – старший преподаватель
кафедры «Метрология и стандартизация» Бухарского
государственного технического университета**



Аннотация. В данной статье анализируются теоретико-методологические основы разработки критериев оценки исследовательских умений студентов и диагностических инструментов, направленных на их выявление. Исследовательские умения рассматриваются как важный компонент формирования профессиональных компетенций в современной системе высшего образования, а их структурное содержание систематизируется на основе рефлексивного, аналитического, методологического, креативного и коммуникативного компонентов. В статье на основе компетентностного подхода, системного анализа, деятельностного подхода и принципов диагностического мониторинга разработаны критерии оценки.

Ключевые слова: исследовательские умения, критерии оценки, диагностические инструменты, компетентностный подход, рефлексивная оценка, аналитическое мышление, научно-исследовательская деятельность, система индикаторов, рейтинговая модель, мониторинг, высшее образование.

DEVELOPMENT OF CRITERIA FOR ASSESSING RESEARCH SKILLS AND DIAGNOSTIC TOOLS

**Sayidakhmedov Ravshan Rajabovich – Senior Lecturer of the
Department of “Metrology and Standardization,” Bukhara State
Technical University**

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing criteria for assessing students' research skills and diagnostic tools aimed at identifying their level of formation. Research skills are considered as an essential component of professional competence development in modern higher education, and their structural composition is systematized based on reflective, analytical, methodological, creative, and communicative components. The assessment criteria are developed on the



basis of the competency-based approach, system analysis, activity-based approach, and principles of diagnostic monitoring.

Keywords: research skills, assessment criteria, diagnostic tools, competency-based approach, reflective assessment, analytical thinking, research activity, system of indicators, rating model, monitoring, higher education.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida mutaxassis tayyorlash jarayoni nafaqat tayyor bilimlarni egallash, balki ilmiy izlanish olib borish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va asosli xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Ayniqsa, oliy va kasbiy ta'limda tadqiqot ko'nikmalari talabaning kasbiy va ilmiy salohiyatini belgilovchi muhim indikator sifatida qaralmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida ularning rivojlanish darajasini aniq baholash, monitoring qilish va tahlil etish muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda. Amaliyotda baholash ko'pincha fragmentar, subyektiv yoki faqat yakuniy natijaga yo'naltirilgan bo'lib, jarayonli va diagnostik yondashuv yetarli darajada qo'llanilmayapti.


Mazkur holat tadqiqot ko'nikmalarini baholashning ilmiy asoslangan mezonlari hamda diagnostika vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu sababli maqolada tadqiqot ko'nikmalarini baholashning tizimli modeli va samarali diagnostika mexanizmlarini ishlab chiqish masalasi asosiy tadqiqot obyekti sifatida tanlandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik izlanishning kompleks metodologik yondashuvi qo'llanildi. Jumladan, kompetensiyaviy, tizimli va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Empirik bosqichda oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar bilan kuzatuv, so'rovnoma, test sinovlari va portfel tahlili o'tkazildi. Tadqiqot



ko'nikmalarini baholash mezonlarini aniqlashda ularning kognitiv, operatsion va reflektiv komponentlari asos qilib olindi.



1-rasm. Tadqiqotni baholash mezonlari va diyagnostika usullari

Diyagnostika vositalari sifatida:

- tartiblashtirilgan test topshiriqlari,
- mezonli baholash mezonlari,
- talabaning tadqiqot portfeli,
- o'zini-o'zi baholash va refleksiya varaqalari ishlab chiqildi va

tajriba-sinovdan o'tkazildi. Olingan natijalar matematik-statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, umumlashtirildi.

Results. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tadqiqot ko'nikmalarini baholash quyidagi asosiy mezonlar orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligi aniqlandi: muammoni aniqlash va ilmiy asoslash, axborotni tahlil qilish va tanlash, tadqiqot metodlarini qo'llash, natijalarni umumlashtirish va ilmiy xulosa chiqarish.

Tajriba-sinov jarayonida ishlab chiqilgan diyagnostika vositalari talabalarning tadqiqot ko'nikmalarini bosqichma-bosqich aniqlash imkonini berdi. Ayniqsa, portfel va mezonga asoslangan baholash vositalari talabaning individual rivojlanish dinamikasini aniqlashda yuqori samaradorlik ko'rsatdi.



Natijalar shuni ko'rsatdiki, diagnostika jarayonining tizimli tashkil etilishi talabalar tadqiqot faoliyatiga nisbatan ongli munosabatni shakllantirib, ularning mustaqil izlanish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Muhokama. Olingan natijalar tadqiqot ko'nikmalarini baholashda faqat yakuniy mahsulotni emas, balki jarayonni ham baholash zarurligini tasdiqlaydi. An'anaviy baholash tizimlari ko'pincha bilim darajasini aniqlash bilan cheklanib qolsa, taklif etilayotgan mezonli-diagnostik yondashuv talabaning ilmiy tafakkuri va izlanish faoliyatini kompleks baholash imkonini beradi.

Muhokama jarayonida aniqlanganki, diagnostika vositalarining kombinatsiyalashgan holda qo'llanilishi baholashning obyektivligini oshiradi hamda pedagogik monitoring samaradorligini ta'minlaydi. Bu yondashuv tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishda individual yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur modelni oliy va kasbiy ta'lim tizimiga joriy etish orqali talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorgarlik darajasini oshirish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot ko'nikmalarini baholash mezonlari va diagnostika vositalarini ilmiy asosda ishlab chiqish ta'lim jarayonining sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Taklif etilgan mezonli-diagnostik model talabalarning tadqiqot ko'nikmalarini aniqlash, rivojlantirish va monitoring qilish imkonini beradi.

Natijada talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini obyektiv baholashga imkon beruvchi ko'p mezonli baholash modeli ishlab chiqildi hamda uning ta'lim jarayoniga joriy etish mexanizmlari asoslab berildi. Mazkur yondashuv tadqiqot kompetensiyalarini tizimli shakllantirish, sifat monitoringini ta'minlash hamda bo'lajak mutaxassislarning ilmiy-ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020 yil 23 sentyabr, O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida".
3. Abdullayeva N.X. Kompetensiyaviy yondashuv asosida oliy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 176 b.
4. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. – 4th ed. – Maidenhead: Open University Press, 2011. – 389 p.
5. Boud D., Falchikov N. Aligning Assessment with Long-Term Learning // Assessment & Evaluation in Higher Education. – 2006. – Vol. 31(4). – P. 399–413.
6. Brookhart S.M. How to Create and Use Rubrics for Formative Assessment and Grading. – Alexandria, VA: ASCD, 2013. – 141 p.
7. Creswell J.W. Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. – 4th ed. – Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2014. – 273 p.
8. Тухтаева, З. Ш. (2012). Методика межпредметной преемственности в профессиональном образовании.
9. Sharifovna, T. Z. (2019). Organizational-methodological inter-objective integrations in teaching special disciplines. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
10. Тухтаева, З. Ш. (2018). Олий таълимда ихтисослик ва мутахассислик фанлар узвийлиги ва интеграциясини таъминлаш муаммолари. Касб-хунар таълим, 4, 21.
11. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 240 b.



12. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik
texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 256 b.